



ILMIY USLUBGA OID PSIXOLOGIK MATN BIRLIKLARINING INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMASI MUAMMOLARI

(ALEM ABDILDAULINING “BOSHLANG'ICH MAKTAB YOSHIDAGI PSIXOLOGIYA” ILMIY MAQOLASINING INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMASI MISOLIDA)

Normatova Feruza Shavkatovna

Termiz davlat pedagogika institute Xorijiy til va adabiyoti fakulteti, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til(ingliz tili) yo'nalishi talabasi (998883517788, email: feruza1088@umail.uz)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alem Abdildaulining “Boshlang'ich maktab yoshidagi psixologiya” ilmiy maqolasidagi psixologik matn birliklarining ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimasidagi muammolari haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *psixologiya, D. B. El'konin, Peaget, ijtimoiy rivojlanish, neoplazma, shaxsiy aks ettirish, aqliy rivojlanish, o'yin, yosh inqirozi*

Abstract: *This article talks about the problems of translation of psychological text units from English to Uzbek in Alem Abdildauli's scientific article "Psychology at Primary School Age".*

Key words: *psychology, D. B. Elkonin, Piaget, social development, neoplasm, personal reflection, mental development, game, age crisis*

KIRISH

Tarjima — bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima – xalqaro ilmlarni puxta o'rganishning eng yaxshi yordamchisi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Ilmiy uslubga oid matnlarni tarjima qilishda, adekvat tarjimani yaratishda qarz olish, kuzatish, so'zma-so'z tarjima, transpozitsiya, modulyatsiya, ekvivalentlik va moslashuv kabi yettita usuldan foydalanish mumkin.

Alem Abdildaulining “Boshlang'ich maktab yoshidagi psixologiya” ilmiy maqolasidagi psixologik matn birliklarining ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimasida ekvivalentlik va konkretizatsiya, moslashuv kabi usullardan foydalanilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozigi davrda har bir taraqqiy etgan xalq jahondagi yuzlab xalqlar tilidan o'z ona tiliga ilm-fan va madaniyatning o'nlab sohalariga oid materiallarni (lirik she'rlar, xabarlar, texnologiya adabiyoti va boshqalar) tarjima qiladi.

Tarjima nusxa ko'chirish emas; tarjimonning estetik ehtiyoji uning ixtiyoridan tashqari, Tarjimada iz qoldiradi. Yozuvchi hayot voqealaridan olgan mushohadalarini tilda ilmiy ifodalasa, tarjimon asl matnini yangi til vositasida qayta gavdalantiradi. Buning uchun u asarda tilga olingan psixologik voqelikning muallif darajasida puxta bilishi kerak. Begona tildagi matnni tarjimon uzi uchun talqin etishi bilan uni uz tilida boshqalarga atab qayta yaratishi o'rtasida ulkan tafovut bor. (G'. Salomov, „Tarjima nazariyasiga kirish“)



Psixologik matn asosiy yukni ko'taradigan atamalarga to'la. Bunday atamalarga qo'yiladigan asosiy talab - bu turli xil talqin qilish imkoniyatini bermaydigan fikrni ifoda etishning eng aniqligi. Demak, atamaga qo'yiladigan asosiy talab - bu aniqlik, ya'ni bitta aniq ma'noga ega bo'lishdir. (A. A. Lobanova, L. M. Lemaikina <https://bolchekknig.ru>).

Ilmiy tarjimani shakllantirish aslyat va tarjima tillari aslyat va tarjima tillarining ilmiy xususiyatlari, tarjima matni sohiblarining psixologik bilimlar majmuyi, ilmiy tarjimada qo'llaniladigan tarjima uslublari, transformatsiyalarini bilishi talab etiladi.

Ilmiy asarda ba'zi so'z va so'z birliklarini asl holicha tarjima qilishning imkoni bo'lmaydi. Bunda asar matnidagi asl ma'noni saqlab qolish mushkul bo'lib qoladi.

NATIJALAR

Ushbu ishning asosiy maqsadi - ilmiy psixologik matnlarning ingliz tildan o'zbek tiliga o'girish jarayonida lingvistlar duch keladigan ba'zi muammolarni ilmiy tahlillar natijasida bayon qilish va tarjima sohasining rivojida oz bo'lsada o'z hissamni qo'shish. Jumladan, so'z qurilishidagi o'zaro qarama-qarshiliklar, mazmunning asl holatini imkon qadar saqlab qolgan holda bayon etish. Tarjima orqali bolalar psixologiyasi borasidagi xalqaro ilmiy ishlar namunalarini xalqimiz pedagoglariga taqdim etish.

MUHOKAMA

Someone else's adult – balog'atga yetganlardan yana kimdir.

Bu matnni tarjima qilishda mutolaachiga tushunarliroq chiqishi uchun

Konkretizatsiya usulidan foydalanilgan. Agar so'zma-so'z tarjima qilinganda "Someone else's adult" - "boshqa birovning kattalar" tarzida chiqar edi. Bu esa ilmiy matnni mujmal qilib qo'yishi mumkin edi. Ingliz tilida balog'atga yetgan, katta inson bir so'z bilan "adult" deb ataladi.

Yuqoridagi kabi quyidagi matnlar tarjimasining so'zma-so'z tarjima qilingandagi va konkretizatsiya, moslashuv usullaridagi mazmuni jihatidan ko'rib chiqamiz:

Inglizcha psixologik matn	O'zbekcha so'zma-so'z tarjimasi	konkretizatsiya, moslashuv usullaridagi o'zbekcha tarjimasining mazmuni va izohi
teacher ,which is an indisputable authority	ustoz bu shubhasiz vakolatdir	shak-shubhasiz vakolatli bo'lgan ustoz
Mutual relations with peers pass from sphere of personal preferences in sphere partner	Tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlar soha hamkorida shaxsiy imtiyozlar sohasidan o'tadi	Tengdoshlar bilan hissiy munosabatlar sheriklik doirasida shaxsiy afzalliklar doirasidan o'tadi
She turns the child to herself, requires reflection, an assessment of "what I was" and "what I became."	U bolani o'ziga qaratadi, mulohaza yuritishni, "men nima edim" va "men nima bo'ldim" ni baholashni talab qiladi	U bolani o'ziga qaratadi, "men kim edim" va "men kim bo'ldim" tahlilida mulohaza yuritishni talab qiladi
Reflection as the realization of one's own changes	Refleksiya o'z o'zgarishlarini amalga oshirish sifatida	shaxsiy o'zgarishlardan birini amalga oshirish kabi mulohaza yuritish
Intellect mediates the development of all other functions	aql boshqa barcha funktsiyalarning	Idrok boshqa barcha funktsiyalarning rivojlanishiga

	rivojlanishini bog'lab turadi	vositachilik qiladi
there is an intellectualization of all mental processes, their awareness and arbitrariness	barcha psixik jarayonlarning intellektuallashuvi, ularning xabardorligi va o'zboshimchaliklari mavjud	ularning barcha munosabat va bilish, aqliy jarayonlarining intellektuallashuvida mavjud
after all, a child plays because he wants, this activity for her own sake, just like that	axir, bola o'zi xohlagani uchun o'ynaydi, bu faoliyat o'zi uchun, xuddi shunday	Axir, xuddi shunday, bola bu faoliyat uning o'zi uchun ekanligi sababli va o'zi xohlagani uchun o'ynaydi.
A teacher appears in the system of relations "a foreign adult", which is an indisputable authority	O'qituvchi munosabatlar tizimida "chet ellik kattalar" paydo bo'ladi, qaysiki shubhasiz hokimiyat	Munosabatlar tizimida shak-shubhasiz vakolatli bo'lgan o'qituvchi "voyaga yetga chet ellik shaxs " paydo bo'ladi
It overcomes the realism of thinking that allows you to see patterns, unrepresented at Plan perception	Bu sizga naqshlarni ko'rishga imkon beradigan fikrlash realizmini engib chiqadi, rejani idrok etishda namoyon bo'lmaydi	fikrlash realizmini yengib chiqish sizga rejani idrok etishda namoyon bo'lmaydigan namunalarni ko'rishga imkon beradi
Compliance is increasing, reaching its peak by 12 years	Muvofiqlik ortib bormoqda va 12 yil ichida o'zining eng yuqori cho'qqisiga yetadi	Muvofiqlik 12 yoshlar ichida o'zining eng yuqori cho'qqisiga yetmoqda va ortib bormoqda
Fear can take the form of anxiety or anxiety	Qo'rquv tashvish yoki tashvish shaklida bo'lishi mumkin.	Qo'rquv tashvish yoki bezovtalik shaklida bo'lishi mumkin.
Educational activity is politically motivated - it is motivated and sent by different educational motives.	Ta'lim faoliyati siyosiy motivatsiyaga ega-u turli xil ta'lim motivlari bilan rag'batlantiriladi va yuboriladi	Ta'lim faoliyati – turli xil ta'lim motivlari bilan yuborilgan va undalغان siyosiy motivatsiyadir.
Children, solving many specific tasks, themselves spontaneously open for themselves a common way to solve them.	Bolalar, ko'plab xos vazifalarni hal qilib, o'zlari uchun o'z-o'zidan ularni hal qilishning umumiy usulini ochadilar	Bolalar, ko'plab maxsus vazifalarni yecha turib, o'zlari uchun beixtiyor ularni yechishning umumiy usulini ochadilar. (izoh: Solve – hal qilmoq, yechmoq deb tarjima qilinadi. Ushbu gapdagi solving many specific tasks"ning tarjimasi uchun "yechmoq", "ya'ni maxsus



		vazifalarni yechish” deb tarjima qilish lozim. Chunki “hal qilmoq” degan ma’nosi ingliz tilida ko’proq “problem solving” “muammoni hal qilish ma’nosi uchun qo’llaniladi
Each training operation should be worked out.	har bir mashq qilish harakati ish tashqariga	Har bir mashg’ulot jarayoni ishlab chiqilgan bo’lishi kerak (ingliz tiliga work out iborasi mavjud bo’lib, ishlab chiqilgan degan ma’noni anglatadi)
as children come to school with a little overestimated self-esteem	bolalar maktabga ozgina haddan tashqari hurmat bilan kelishadi	bola o’ziga bo’lgan hurmatga ozgina ortiqcha baho bilan maktabga kelgani kabi
early school years	erta maktab yillari	erta maktab yoshlari

“Tarjimaning muayyan usulini tanlash asosan ibora komponentlari o’rtasidagi semantik aloqalar, grammatik norma hamda tarjima tilidagi so’z birikmasini hosil qilish xususiyatlari bilan belgilanadi (Petrova. 2006, 18)”.

XULOSA

Maqolada muhokamaga sabab bo’lgan mavzular ilmiy matnlarni tarjima qilishning asosiy me’yorlaridandir. Bu ma’lumotlar haqida yaxshi bilimga ega bo’lish, ularni o’z o’rnida mahorat bilan qo’llay olish imkoniyatini yaratadi va bizning tarjimon bo’lib shakllanishimizda muhim o’rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Alem abdildaui “psychology of primary school age” 08.01.2020 <https://znanio.ru>
2. Nihon oriento gakkai “orient” - том 46 - страница 49, 2011 г. Издатель:the society владелец оригинала:калифорнийский университет в беркли оцифровано:22 февраля 2018 г. Языки:английский, французский, немецкий
3. Shavkat Butayev ingliz-uzbek uzbek-ingliz 70000 words and expressions “O’zbekiston” nashriyot-matbaa uyi toshkent-2014, 56-bet)
4. Solijonov Jurali Kamoljonovich Final qualification work«english-uzbek translation problems of the novel "harry potter and the sorcerer's stone" by j. K. Rowling»
5. <https://savodxon.uz/izoh>